

YOSHLAR NASRIDA MILLIY KOLORIT TALQINI

Suvanov Husniddin Norqulovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektor yordamchisi.

Tel: +998977868805 E-mail: hsuvanov@tersu.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21254833>

Annotatsiya. Maqolada madaniyat, milliy kolorit va milliy nutqning badiiy asarda namoyon bo'lishi yoritib berilgan. Madaniyatning kolorit bilan uyg'unligi asosli fikrlar bilan keltirilgan. Yosh o'zbek nasrda ijodkorlarning badiiy asarlarida milliy ruhga va milliy xarakter g'oyaviy jihatdan ifodalanishi ochib berilgan.

Kalit so'z: Madaniyat, badiiy asar, xalqonalik, tili, milliy kolorit, milliy ruh.

Abstract. The article highlights the manifestation of culture, national color and national speech in the artistic work. The combination of culture and color is presented with reasonable ideas. Young Uzbek prose reveals the ideological expression of the national spirit and national character in the artistic works of creators.

Key words: Culture, artistic work, folklore, language, national color, national spirit.

Аннотация. В статье освещается проявление культуры, национального колорита и национальной речи в художественном произведении. Сочетание культуры и цвета представлено разумными идеями. Молодёжная узбекская проза раскрывает идейное выражение национального духа и национального характера в художественных произведениях творцов.

Ключевые слова: Культура, художественное творчество, фольклор, язык, национальный колорит, национальный дух.

Ajdodlar an'anasi va yoshlar nasridagi davomiyligi haqida gapirsak, bugungi kunda buyuk ajdodlarimizning boy madaniy va ilmiy merosiga izdosh bo'lib, ularning ijodiy an'alarini munosib davom ettirayotgan yosh avlod vakillari o'zbek adabiyoti xazinasini yangi asarlar bilan boyitmoqda.

Zamonaviy o'zbek yoshlar nasrida milliy ruh tasviri shunchaki badiiy detal emas, balki asarning estetik qiymatini belgilovchi bosh mezonga aylanib bormoqda. Bugungi yosh ijodkorlar xalqimizning o'tmishi, buguni va kelajagini badiiy qissa hamda hikoyalarda uyg'unlashtirgan holda, milliy o'zlikni anglash g'oyasini ilgari surmoqdalar.

Yosh nosirlar asarlarida milliy ruh va koloritning yorqin aks etishi bir qancha fundamental omillar bilan bevosita bog'liq. Adabiyotshunoslik mezonlariga ko'ra, badiiy ijodda milliylikni ta'minlovchi asosiy belgilar quyidagilardan iborat:

Milliy til va o'ziga xos nutq madaniyati: Qahramonlar tilidagi o'zbekona joziba va ifoda usullari. Milliy xarakter va ruhiyat (mentalitet): O'zbekona andisha, mehmondostlik, or-nomus va oilaga sadoqat.

Milliy-axloqiy qoidalar: Kattaga hurmat, kichikka izzat kabi azaliy qadriyatlar.

Urf-odat va etnografik jihatlar: An'anaviy marosimlar, milliy o'yinlar va turmush tarzi.

Hozirgi yoshlar nasrida ijod qilayotgan Anvar Suyun, Nodirabegim Ibrohimova, Asliddin Mustafoyev, Akmal Murod, Sherzod Halil, Bibi Robiya Saidova, Jasur Kengboyev, Sarvar To'rayev, Nargiza Asadova hamda Gulnoz Mamarasulova kabi ijodkorlarning asarlarida yuqorida

zikr etilgan milliylik belgilari talaygina va o'ziga xos mahorat bilan qo'llanilgan. Bugungi yosh avlod nasridagi milliy ruhning yangilanishi ularning faqat milliy qobiq bilan cheklanib qolmaganida, balki jahon adabiyoti tajribalarini ham puxta egallaganida ko'rinadi. Ular jahon adabiy mezonlari va yangi ramziy-modernistik usullarni o'zbekona tafakkur elagidan o'tkazib, o'ziga xos sintez yaratmoqdalar.

Ayniqsa, Anvar Suyun, Normurod Chori, Sanjar Tursun va Bibi Robiya Saidova kabi ijodkorlar o'z qissa va hikoyalarida milliy nutq jozibasi, milliy xarakterlar silsilasi va etno-kolorit rang-barangligidan unumli foydalanmoqdalar. Bu yozuvchilarning asarlarini mutolaa qilar ekansiz, go'yo chuqur tarixiy va ilmiy manbani o'qiyotgandek bo'lasiz. Shu bilan birga, asarlarning bugungi kun nafasi va zamonaviy nasriy yo'nalishlar bilan hamohang ekanligini sezasiz. Mualliflar o'zbek xalqining ma'naviy qiyofasini zamonaviy voqelik zaminida aks ettirganlar.

Maqol va iboralar – milliy mentalitet ko'zgusi

Milliy koloritni ifodalashda yosh ijodkorlar ba'zi hollarda xalq donishmandligi mahsuli bo'lgan maqol va aforizmlarga tayanadilar. Masalan, xalqimiz orasida keng tarqalgan *"It bo'l, qush bo'l, ko'p bo'l"* maqoli o'zbek millatining qon-qoniga singib ketgan bolajonlik va birdamlik tuyg'usini ifodalaydi. Bu o'rinda atoqli shoir Muhammad Yusufning *"O'nta bo'lsa o'rni boshqa deydilar"* degan mashhur misrasi yodga tushadi. Millatimizda o'nta farzand bo'lsa ham, ularning hech biri ota-ona uchun og'irlik qilmaydi; farzand kamoli uchun ota-ona kerak bo'lsa jonini ham ayamaydi. Ushbu maqollar xalqimizning bag'rikeng va bolajon xalq ekanligidan dalolat beradi va yosh ijodkorlar bunday hikmatli so'zlardan matn ichida o'rinli foydalanishadi.

Shuningdek, A. Suyun, N. Chori, S. Tursun va Bibi Robiya Saidova asarlarida xalqona iboralar ham ustalik bilan qo'llanilgan. Yozuvchilar qahramonlar tabiatini, ularning ichki dunyosini kitobxonga to'laqonli yetkazish uchun ham personajlar dialoglariga, ham muallif nutqidagi izohlarga alohida e'tibor qaratadilar. Har bir qahramonning so'zlash tarzi, ohangi, monolog va dialoglari uning xarakteri shakllanishiga xizmat qiladi.

Bu o'rinda "Muzaffar tong" va "Eshmonbek" asarlaridagi milliylikni ta'minlovchi omillar asarlarning syujet va kompozitsion chizig'iga chuqur singdirilganki, buni o'qigan kitobxonning milliy qadriyatlarga bo'lgan hurmati beixtiyor oshadi. Inson yuragidagi Vatanga, ota-onaga, aka-uka va qondoshlarga bo'lgan cheksiz mehr aynan shu asarlardagi samimiyat bulog'idan qaynab chiqadi.

Sanjar Tursunning "Muzaffar tong" hikoyalar to'plami o'zining keng falsafiy va ma'naviy mazmuni bilan bugungi adabiyotimizning go'zal namunalaridan biriga aylandi. Bu to'plamda insonning tafakkur olami, uning hayot yo'li, qismati va ichki kechinmalari o'z ifodasini topgan.

Har bir hikoyada real hayotda sodir bo'lgan yoki bo'lishi mumkin bo'lgan voqealar badiiylik qonuniyatlari asosida o'quvchiga mahorat bilan yetkaziladi. Anvar Suyunning "Eshmonbek" qissasi esa kitobxonni milliy tariximiz, qadimiy urf-odatlarimiz, unutilayotgan milliy o'yinlarimiz va xalqimizga xos bo'lgan umuminsoniy xarakterlar dunyosi bilan oshno etadi.

Ikkala ijodkor ham o'z hikoya va qissalarida milliy ifodani murakkablashtirmasdan, sodda, samimiy va jo'n tilda o'quvchi qalbiga yetkazib bera olganlar. Asarlarda ko'tarilgan ijtimoiy va ma'naviy muammolar milliy ruh prizmasi orqali badiiy talqin qilingan.

Xulosa qilib aytganda, bugungi yoshlar nasri o'zbek xalqining milliy o'ziga xosligini, uning lisoniy va etnik qiyofasini saqlab qolish va rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Yosh yozuvchilarimiz badiiy asarda o'zbek koloritining barcha xususiyatlarini mujassamlashtira olganlar. Ular yaratayotgan asarlar kelajakda ham o'zbek adabiyotida milliy ruhning barhayotligini ta'minlashiga shubha yo'q.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. CHARACTERISTIC ASPECTS OF NATIONAL COLOR IN BIBI ROBIA SAIDOVA'S STORY" OQMAYDIGAN TOSH" H SUVANOV Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and
2. Husniddin, Suvanov. "" ESHMONBEK" QISSASIDA MILLIY RUH TALQINI." BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI (2022): 126-131.
3. Kolorit ijodkorning va xalqning milliy qirralarini ochib berguvchi omildir. HN Suvanov Science and Education 4 (6), 962-965
4. "ESHMONBEK" QISSASIDA MILLIY RUH TALQINI S Husniddin BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 126-131
5. А. Сюун.Ғўбдинтоғ ҳикоялари. Акдмнашр. Тошкент–2005 й. 37 б.
6. Suvanov H. N. et al. Kolorit ijodkorning va xalqning milliy qirralarini ochib berguvchi omildir //Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 6. – С. 962-965.
7. Husniddin Norkulovich Suvanov Termiz State University Teacher Uzbekistan ARTISTIC INTERPRETATION OF NATIONAL COLOR IN PROSE OF UZBEK YOUNG PEOPLE 28.02.2023
8. NATIONAL COLOR AND COMPARATIVE ANALYSIS IN THE WORKS OF MAHTUMQULI, GAFUR GHULAM AND ANVAR SUYUN H Suvanov Modern Science and Research 3 (2), 778-781
9. MANIFESTATION OF THE NATIONAL COLOR CHARACTERISTIC OF THE NATIONAL MENTALITY IN THE WORKS OF BIBI ROBIA'SAIDOVA H Suvanov Modern Science and Research 2 (10), 210-216